



O'ZBEKISTONDAGI LISONIY VAZIYAT VA TIL SIYOSATI

Ismatova Sarvinoz Jamshid qizi.

Kattaqo 'rg'on davlat pedagogic instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'zbekistondagi lisoniy vaziyat va davlat tomonidan olib borilayotgan til siyosatining asosiy yo'nalishlari ilmiy tahlil qilinadi. Jamiyatdagi ko'p tillilik, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi ijtimoiy-madaniy mavqei, shuningdek, boshqa milliy tillarning rivojlanish imkoniyatlari lisoniy muhitning muhim tarkibiy qismlari sifatida yoritiladi. Lisoniy jarayonlarning tarixiy va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligi ochib berilib, til siyosatining barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada globallasuv sharoitida til siyosatining dolzarbligi, xorijiy tillarni o'rganish jarayonlarining lisoniy vaziyatga ta'siri hamda davlat tilining nufuzini oshirishga qaratilgan islohotlar tahlil etiladi. Tadqiqot natijalari O'zbekistonda ochiq, tolerant va barqaror til muhitini shakllantirishda ilmiy yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatib beradi.*

Kalit so'zlar: *lisoniy vaziyat, til siyosati, davlat tili, ko'p tillilik, til taraqqiyoti, til madaniyati, globallasuv, ijtimoiy kommunikatsiya.*

Аннотация. *В данной статье представлен научный анализ языковой ситуации в Узбекистане и основных направлений государственной языковой политики. Выделены многоязычие в обществе, социокультурное положение узбекского языка как государственного языка, а также возможности развития других национальных языков как важных компонентов языковой среды. Раскрыта связь языковых процессов с историко-социальными факторами, обоснована роль языковой политики в обеспечении стабильности и социальной гармонии. В статье также анализируется актуальность языковой политики в контексте глобализации, влияние процессов изучения иностранных языков на языковую ситуацию и реформы, направленные на повышение престижа государственного языка. Результаты исследования демонстрируют важность научных подходов в формировании открытой, толерантной и стабильной языковой среды в Узбекистане.*

Ключевые слова: *языковая ситуация, языковая политика, государственный язык, многоязычие, развитие языка, языковая культура, глобализация, социальная коммуникация.*

Abstract. *This article provides a scientific analysis of the linguistic situation in Uzbekistan and the main directions of the state language policy. Multilingualism in society, the socio-cultural position of the Uzbek language as the state language, as well as the development opportunities of other national languages as important components of the linguistic environment are highlighted. The connection of linguistic processes with historical and social factors is revealed, and the role of language policy in ensuring stability and social harmony is substantiated. The article also analyzes the relevance of*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



language policy in the context of globalization, the impact of foreign language learning processes on the linguistic situation, and reforms aimed at increasing the prestige of the state language. The results of the study demonstrate the importance of scientific approaches in forming an open, tolerant and stable language environment in Uzbekistan.

Keywords: *linguistic situation, language policy, state language, multilingualism, language development, language culture, globalization, social communication.*

Kirish. Til har bir jamiyatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O'zbekistonda mustaqillik davridan boshlab til masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangan bo'lib, bu jarayon lisoniy vaziyatning tubdan yangilanishiga olib keldi. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi huquqiy maqomi mustahkamlanib, uning jamiyat hayotining barcha sohalarida faol qo'llanilishi uchun zarur sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda O'zbekiston ko'p millatli va ko'p tilli davlat sifatida o'ziga xos lisoniy makonga ega. Bu holat til siyosatini muvozanatli olib borish, davlat tilini rivojlantirish bilan bir qatorda boshqa tillarning ham erkin faoliyat yuritishini ta'minlashni taqozo etadi. Shu sababli lisoniy vaziyat va til siyosatini ilmiy asosda o'rganish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda lisoniy jarayonlarni tahlil qilishda qiyosiy, tavsifiy va funksional yondashuvlardan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar, zamonaviy tadqiqotlar hamda rasmiy axborot manbalari asosida O'zbekistondagi til siyosatining asosiy tamoyillari umumlashtirildi. Shuningdek, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlashda sotsiollingvistik yondashuv qo'llanildi.

Mushtarak ilmiy talqinga ega bo'lmagan ushbu atama va uning tipologiyasi tavsifini shakllantirishni sotsiollingvistika fanining dolzarb vazifasi sifatida ta'kidlar ekan M.Zokirov til vaziyati tahlili tarkibiy qismlarining eng muhim xususiyatlari tillarning funksional yuki va ijtimoiy maqomi bilan belgilanadi, degan fikrni ilgari suradi. Til vaziyati ekzogloss (exoglossal) va endogloss (endoglossic) darajada o'rganilib, bunda birinchi tur bir necha tillarni, ikkinchisi bir tilning bir qator subsistemalarini o'rganishi bilan farqlanadi. Til vaziyati o'rganilganda natijalar muvozanatli (qo'llanilishdagi tillar funksional jihatdan teng) yoki muvozanatsiz (ijtimoiy guruhlar va kommunikatsiya sohalarida turli darajada qo'llanilishga ega) bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada O'zbekistondagi til vaziyati ekzogloss darajada muvozanatsizlik xususiyati bo'yicha o'rganiladi.

O'zbekiston ko'p millatli mamlakat. Unda ko'p tillilik xususiyatlari ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Afg'oniston kabi davlatlar bilan chegaradoshligi uchun chegaraga yaqin hududlarda istiqomat qiluvchi aholi orasida qo'shni davlatlar tilida so'zlashuvchi fuqarolar ham ko'plab topiladi. Tarixiy sharoit, bugungi taraqqiyot va istiqbolli kelajakga maqsadli intilish natijasida unda tillar bilan bog'liq o'ziga xos vaziyatni uchratish mumkin.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'zbekiston Sovet Ittifoqi tarkibida bo'lgan davrda rus tili rasmiy til sifatida keng qo'llanilgan. 1989-yilda mustaqillikka erishish yo'lidagi ilk salmoqli qadamlardan biri sifatida O'zbekiston davlat tili sifatida o'zbek tilini tan oldi. O'zbek tili mamlakat hududida eng faol qo'llanishda bo'lgan tildir. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi Qoraqalpog'iston suveren demokratik respublikasi hududida o'zbek tili bilan teng mavqega ega bo'lgan yana bir davlat tili qoraqalpoq tili ham faol qo'llanishga ega. Shunga qaramasdan, rus tili ham yurtimizda muhim mavqeni saqlab qolishda davom etmoqda. O'zbekistonning turli sohalarida, ayniqsa, ta'lim, siyosat va iqtisodiyotda rus tilining ta'siri hali ham sezilarli darajada yuqori. Rus tili ta'lim sohasida muhim o'rinni egallab kelmoqda. Ayniqsa, shahar joylarida, xususan Toshkentda, ko'plab maktablar va oliy o'quv yurtlarida ta'lim tili rus tili bo'lgan guruhlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, ilm-fan va texnologiyalar sohasidagi ko'plab nashrlar va o'quv materiallari rus tilida bo'lgani uchun rus tilida bilimli bo'lish hali ham afzallik hisoblanadi. 2023-2024-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarida barcha o'qitish tillari bo'yicha jami o'quvchilar soni to'g'risida ma'lumot rus tilining o'zbek tilidan keying o'rindagi keng miqyosli qo'llanishiga misol bo'la

oladi:

O'zbek tilida ta'lim oladigan o'quvchilar soni	5 549 775 nafar
Rus tilida ta'lim oladigan o'quvchilar soni	666443 nafar
Qoraqalpoq tilida ta'lim oladigan o'quvchilar soni	126316 nafar
Tojik tilida ta'lim oladigan o'quvchilar soni	64902 nafar
Qozoq tilida ta'lim oladigan o'quvchilar soni	50439 nafar
Qirg'iz tilida ta'lim oladigan o'quvchilar soni	7431 nafar
Turkman tilida ta'lim oladigan o'quvchilar soni	10785 nafar

O'zbekistonda rus tilini yaxshi bilish ko'pincha yuqori saviyali iqtisodiy imkoniyatlar bilan bog'lanadi. Ko'pgina ish beruvchilar rus tilini bilishni muhim ko'nikma deb bilishadi. Bu rus tilining ijtimoiy mavqei ko'tarilishi va madaniy kapitalning belgisi bo'lishiga sabab bo'lgan.

O'zbekistonda rus tilining o'rni shaharlarda va qishloqlarda farqlanadi. Shaharlarda, ayniqsa, Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi yirik shahar hududlarida rus tili keng tarqalgan va kundalik hayotning bir qismidir. Qishloq joylarda esa o'zbek tili asosiy aloqa tili sifatida ustunlik qiladi va rus tili kamroq ishlatiladi. Rus tili o'zbekistonliklar orasida madaniy ta'sir ko'rsatishni davom ettirmoqda. Ko'plab o'zbek yozuvchilari, shoirlari va



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ilm-fan darg‘alari rus tilida ijod qilgan yoki rus tilidagi asarlardan ilhomlangan. Shuningdek, rus tilidagi ommaviy axborot vositalari, kitoblar, filmlar va musiqalar O‘zbekiston bozorida keng tarqalgan bo‘lib, ular xalq ma‘naviy hayotining bir qismi sifatida ko‘riladi. O‘zbekiston rus madaniyat markazi 1994-yildan buyon yurtimizda faoliyat yuritib kelmoqda. Geosiyosiy jihatdan Rossiya bilan yaqin aloqalar rus tilining O‘zbekistonda rivojlanishini davom ettirishda katta rol o‘ynaydi. Rossiya O‘zbekistonning muhim iqtisodiy hamkori bo‘lganligi sababli, ko‘pgina savdo va iqtisodiy munosabatlar rus tilida olib boriladi. Shuningdek, o‘zbekistonlik migrantlar orasida Rossiyada mehnat qilayotgan fuqarolar ko‘pchilikni (1 million nafar) tashkil etadi. Bu esa ularning rus tilini bilish darajasini oshiradi va mamlakatga qaytganda ushbu tilni saqlab qolishga undaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyevaning so‘zlariga ko‘ra, 10 mingdan ortiq umumiy ta‘lim muassasasida rus tili majburiy o‘quv dasturiga kiritilgan. Mamlakatda Rossiyaning yetakchi universitetlarining 14 ta filiali ochilgan bo‘lsa, Rossiyadagi oliy o‘quv yurtlarida o‘zbekistonlik 50 mingga yaqin talaba tahsil olmoqda.

Richard Foltz muallifligidagi “Tajik language and identity in contemporary Uzbekistan” maqolasida bugungi kunda O‘zbekistonda tojik tili bilan bog‘liq til vaziyati tadqiq etilgan. Unda tilning ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatlari hamda uning kelajagi haqidagi muammolar qalamga olinadi. Olimning tadqiqot ishi natijalarida quyidagi mazmundagi tahlil va xulosalarni uchratish mumkin:

O‘zbekistonda tojik tilini ona tili sifatida gapiruvchilarning soni rasmiy statistikaga qaraganda ancha ko‘p. Rasmiy ma‘lumotlar bo‘yicha tojik tilida so‘zlashuvchilar soni 5 foizdan kam qilib ko‘rsatilsa-da, maqolada bu raqamning haqiqatda uch, xatto o‘n baravar ko‘proq bo‘lishi mumkinligi aytiladi. Biroq, bu raqamlar siyosiy sabablarga ko‘ra ishonchsiz va to‘g‘ri hisob-kitob qilishning deyarli imkoni yo‘q deb baholanadi. Xususan, Samarqand va Buxoro kabi shaharlarda aholining aksariyati tojik tilida so‘zlashadi. Tojik tilida so‘zlashuvchilar Surxondaryo viloyatidan tortib Qashqadaryo va Farg‘ona vodiysigacha keng tarqalgan.

Mustaqillik yillarida tojik maktablarining sonida sezilarli kamayish kuzatilgan. Hozirda ta‘lim olish tili tojik tili bo‘lgan 252 ta maktab bor. Buning asosiy sababi otaonalar farzandlari kelajakda yuqori lavozimlarga ega bo‘lishlari uchun o‘zbek tilini tanlashgani bilan izohlanadi. Bu holat oliy ta‘lim tizimida ham o‘z aksini topgan. Samarqand Davlat Universiteti kabi bir necha oliy o‘quv yurtlarida tojik tili bo‘yicha kurslar mavjud bo‘lsa-da, umumiy miqyosda talabalarning qiziqishi past va bu yo‘nalishdagi o‘quv dasturlari rivojlana olmayapti. O‘zbekistonda tojik tilidagi adabiyotlar yetarli darajada emas. Kitob do‘konlarida sanoqli miqdorda uchratish mumkin bo‘lgan kitoblarning ham aksariyati mustaqil ravishda mualliflar tomonidan moliyalashtirilgan bo‘lib, ularning sifat jihatidan pastligi ta‘kidlanadi.

Mamlakatda tojik tilida ommaviy axborot vositalari ko‘p emas. 1924-yildan buyon faoliyat yuritib kelayotgan Ovozi tojik gazetasi o‘zbek va tojik xalqlari orasidagi ko‘prik





vazifasini o‘tab kelmoqda. Gazetaning bir guruh xodimlari hukumatimizning qator muko fot va ordenlari bilan taqdirlanishgan. Ovozi Samarqand va Sadoi Sux singari mahalliy matbuot nashrlari ham mavjud. Ba’zi o‘zbek nashrlari o‘z tarkibida tojik tilidagi sahifalarni bosmadan chiqarib kelmoqda.

Maqolaning e‘tiborli jihatlaridan biri – O‘zbekistonda yashayotgan tojik tilida so‘zlashuvchi yoshlarning til va madaniy identifikatsiyaga bo‘lgan qiziqishlari susaygan deb baholashidadir. Tadqiqotchi xulosasicha, yoshlar o‘zlarini tojik millatiga mansub deb hisoblamaydilar yoki bunga katta e‘tibor bermaydilar. Ular ko‘pincha tojik tilini o‘zbek tilidan farqli ko‘rmay, ikkala tilni ham bemalol ishlatadilar. Ko‘p hollarda yoshlar o‘z kelajagi uchun o‘zbek tilini ko‘proq foydali deb biladilar, shuning uchun tojik tilida ta’lim olishga qiziqish kamaygan.

O‘zbekistonda qo‘llanishda bo‘lgan tojik tili turkiy tillar bilan aralashuv va birlashuvni o‘zida aks ettiradi. O‘zbekistondagi tojikzabonlar nutqida ruscha so‘zlar ham faol aralashiriladi. Samarqand va Buxoro kabi joylardagi ko‘plab tojik tilida so‘zlashuvchi aholi tilga o‘zbek tilidagi elementlarni kiritgan holda gaplashadi. Bu esa tojik tilining o‘ziga xosligini saqlab qolishga to‘sqinlik qiladi. O‘zbekistondagi tojikzabonlar nutqi tojik adabiy tili me‘yorlaridan tubdan farq qilishi, bir tilda gapirayapman deb o‘ylayotgan o‘zbekistonlik va tojikistonlik ikki suhbatdosh tojik tilidagi suhbatda bir-birini to‘liq tushunmasligi mumkin. Masalan, mutxassisning quyidagi tahlilini olaylik: “Standart salomlashuv “Šumo naghz mi?” degan ifodada faqat birinchi so‘z, ya’ni “siz”, adabiy fors tilidagi bilan o‘xshashdir. “-mi” qo‘shimchasi turkiy savol qo‘shimchasi, “naghz” esa aslida islomgacha bo‘lgan davrda mintaqaning sharqiy eroniy tili — so‘g‘d tilidan saqlanib qolgan qadimiy so‘zdir”.¹²⁰ Siyosat nuqtayi nazaridan O‘zbekistonda tojik tili masalasi sobiq ittifoq davrida qo‘llab-quvvatlangan, mustaqillikning dastlabki yillarida tojik tili taraqqiyotiga ahamiyat sustlashgan va bu tilning ijtimoiy mavqei pasaygan, yangi O‘zbekiston sharoitida esa tojik tiliga nisbatan siyosiy bosim kamaygan degan xulosalar berilgan. O‘zbekistonda bugungi til siyosati ko‘p tillilik va tillar taraqqiyotini faol qo‘llabquvvatlaydi.

Natijalar va muhokama. Lisoniy vaziyatlar obyektiv va subyektiv omillar ta’sirida bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar obyektiv omillarga misol bo‘lsa, davlatda olib borilayotgan til siyosati subyektiv omillar xususiyatini belgilaydi. Tushuncha makon jihatdan katta til hamjamiyatlaridagi (mamlakatlar, hududlar, respublikalardagi) vaziyatni qamrab olib, zamon jihatdan ma’lum bir davrni ifoda etadi. Umumlashtirib aytganda, “lisoniy vaziyat ijtimoiy-kommunikativ tizimning muayyan davridagi faoliyatidir.”¹²¹

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi lisoniy vaziyat barqaror va muvozanatli xarakterga ega. O‘zbek tili davlat tili sifatida rasmiy muloqot, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va davlat boshqaruvida yetakchi o‘rinni egallaydi. Shu bilan birga,

¹²⁰ Berdialiyev A., Turdibekov M. Sotsiologiya. Darslik. Toshkent, 2022, 59-60-b.

¹²¹ Begizova X.B. O‘rganilayotgan mamlakatda til vaziyati (Hindiston va Pokiston) Toshkent -2009, 7-8b.





respublikada istiqomat qiluvchi turli millat vakillarining tillari ham ijtimoiy hayotda faol qo'llanilmoqda. Globallashuv sharoitida xorijiy tillarning, xususan ingliz tilining ta'siri kuchayib borayotgani lisoniy vaziyatning yangi qirralarini yuzaga chiqarmoqda. Bu holat til siyosatini zamon talablariga mos ravishda takomillashtirishni talab etadi. Davlat tilining nufuzini oshirish, uning ilm-fan va texnologiya sohalarida qo'llanilishini kengaytirish bilan bir qatorda, ko'p tillilikni qo'llab-quvvatlash jamiyatda ijtimoiy uyg'unlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O'zbekistondagi lisoniy vaziyat va til siyosati jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat tilining rivoji va uning ijtimoiy hayotdagi mavqeini mustahkamlash barqaror til siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'p tillilikni saqlash va rivojlantirish madaniyatlararo muloqot va tolerant muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Til siyosatini ilmiy asosda olib borish, zamonaviy lisoniy jarayonlarni hisobga olish va globallashuv sharoitida moslashuvchan yondashuvlarni qo'llash O'zbekistonda barqaror va samarali lisoniy makon yaratishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev, A. O'zbek tilining ijtimoiy funksiyalari va til siyosati masalalari. — Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021. — 45–62-betlar.
2. Azimova, D. Zamonaviy O'zbekistonda til siyosati va milliy taraqqiyot. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022. — 88–104-betlar.
3. Begizova X.B. O'rganilayotgan mamlakatda til vaziyati (Hindiston va
4. Pokiston) Toshkent -2009, 7-8b.
5. Berdialiyev A., Turdibekov M. Sotsiologiya. Darslik. Toshkent, 2022, 59-
6. 60-b.
7. Bozorov, B. Ko'p tillilik sharoitida O'zbekistonda lisoniy vaziyat. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. — 57–73-betlar.
8. Ismoilov, S. Davlat tili siyosati va huquqiy-me'yoriy asoslar. — Toshkent: Adolat nashriyoti, 2023. — 112–130-betlar.
9. Jo'rayev, M. Globalizatsiya jarayonida o'zbek tilining mavqei. — Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 2021. — 64–79-betlar.
10. Qodirova, N. Til siyosati va millatlararo muloqot masalalari. — Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2020. — 91–108-betlar.
11. Rahmonov, U. O'zbekistonda lisoniy muhit va ijtimoiy tilshunoslik. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022. — 36–52-betlar.
12. Xudoyberganova, M. Raqamli makonda til siyosati va til madaniyati. — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo nashriyoti, 2024. — 99–115-betlar.
13. www.eduportal.uz – Ta'lim sohasidagi yangiliklar va materiallar portali.
14. <http://www.natlib.uz> – Milliy kutubxona resurslari.